



Nargiza MIRSOLIYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
E-mail: 1285nmx@gmail.com

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti, PhD Sh.Raximova taqrizi asosida

UNIQUE QUALITIES OF THE JAPANESE PEOPLE

Annotation

This article analyzes the national character of the Japanese people, its cultural and social factors, and identifies the behavior of the Japanese people their desire for collectivity, hard work, adherence to discipline, aesthetic sensitivity, the relationship of "furyu" and "giri", humility and respect, and patience as the main characteristics of the national character.

Key words: National character, hard work, discipline, loyalty, politeness, "furyu", "giri", "nindjo", globalization, norms of behavior.

ХАРАКТЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЯПОНСКОГО НАРОДА

Аннотация

В данной статье анализируется национальный характер японского народа, их культурные и социальные факторы, а также выделяются основные характеристики национального характера, такие как поведение японцев, стремление к коллективизму, трудолюбие, дисциплина, эстетическая чувствительность, соотношение "фурю" и "гири", смирение и уважение, терпение.

Ключевые слова: Национальный характер, трудолюбие, дисциплина, верность, вежливость, "фурю", "гири", "ниндзё", глобализация, нормы поведения.

YAPON MILLIY XAKATERINING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada, Yapon xalqining milliy xarakteri, uning madaniy va ijtimoiy omillari tahlil qilinib, yapon xalqning xulq-atvori, jamoaviylikka intilishi, mehnatsevarligi, tartib-intizomga sodiqlik, estetik sezgirlik, "furyu" va "giri" munosabatlari, kamtarlik va hurmat, sabr-toqat kabi fazilatlar milliy xarakterning asosiy belgilar sifatida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Milliy xulq-atvor, mehnatsevarlik, intizomlilik, sodiqlik, xushmuolalik, "furyu", "giri", "nindzyo", globalizatsiya, xulq-odobi me'yori.

Kirish. Inson nihoyatda ko'p qirrali, murakkab va ko'p o'lchami mavjudot bo'lib, uning mohiyatini anglash uzoq vaqt davom etadigan jarayondir. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati yahlit bir butunlik sifatida, inson-shaxs-individ-individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Har bir insonda o'ziga xos xulq-atvor xususiyatlar tizimida namoyon bo'ladi. Milliy xarakter- bu muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan, uning dunyoqarashi, qadriyatlar, xulq-atvori va hayotga munosabatini ifodalovchi barqaror sifatlar majmuasidir. Yapon xalqi o'zining qadimiy urf-odatlar, ichki madaniyati va ijtimoiy xulq-atvori bilan dunyoda alohida e'tiborga sazovor bo'lgan millatlardan biridir. Yaponlarning hayot tarzi, o'zaro munosabatlari, jamiyatdagi o'rni va axloqiy qadriyatlar Yapon milliy xulq-atvorining shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

Metodologiya. Yapon milliy xarakterining shakllanishi, uning ijtimoiy-madaniy asoslari va o'ziga xos jihatlari ilmiy yondashuvlar va usullar qo'llanildi. Yapon xalqining milliy xarakteri qadimgi davr an'analari tahlil qilindi. Yapon madaniyatining estetik qadriyatlar milliy xarakterga ta'siri haqida, ijtimoiy institutlar milliy xarakterga ta'siri o'rdanildi. Yaponiya madaniyati va falsafasi bo'yicha kitoblar, ensiklopediyalar, internet resurslari, media materiallaridan foydalanilgan. Asosiy e'tibor XX-XXI asr Yapon jamiyati va madaniyatida qaratilgan.

Asosiy qism. Adabiy manbalar va shaxsiy ko'zatishlar natijasida Yapon milliy xulq-atvor xususiyatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, tadqiqotimizda milliy xarakter

xususiyatlariga "etnik birlik – gurux– shaxs" prinsipi asosida jamlangan. Yapon milliy harakteriga xos bo'lgan xususiyatlar quydagicha:

Umummilliy xususiyatlar- mehnatsevarlik, o'rta rivojlangan estetik didi tabiatga bo'lgan muhababat, urf-odatlariga sodiqlik, kamtarlik va hurmat, boshqalardan o'zlashtirishga intilish.

Guruxlarda o'zini tutish xususiyatlari- Jamoaviylik va intizomlilik, jamiyatda mehnatiga halol munosabatda bo'lish, burch va ma'suliyat hissi.

Oddiy xususiyatlari – xushmuolalik, oqilonalik, o'zini tuta bilish, tejamkorlik, bilimga qiziquvchanlik[1,-31].

Misol tariqasida, umummilliy xususiyatlar- mehnatsevarlik va u bilan bog'liq mehnat faoliyatining barcha sohalaridagi tirishqoqlik Yapon milliy xulq-atvorining muhim xususiyatidir. Albatta, mehnatsevarlik boshqa xalqlarga ham xos. Nemislar, amerikaliklar, inglizlarning mehnatsevarligini kamroq deb aytish noo'rin. Lekin Yapon va nemislar mehnatsevarligini bir xil deb ham bo'lmaydi. Nemislar shoshmasdan tejamkorlik bilan ishlaydi, ularda hamma narsa ko'zda tutilgan va hisob qilingan. Yaponlar esa, berilib zavq bilan mehnat qiladi. Yaponlarga xos go'zallik hissiyoti mehnat jarayonida ham ifodalanadi.

Yapon millatining asosiy ijtimoiy xususiyati- bu jamiyatda mehnatsevarlik, sodiqlik, birlik va ijtimoiy uyg'unlikka intilish. Shaxsiy manfaatlar emas jamiyat manfaatlarini ustivor hisoblash, jamiyatda inson o'z guruhiga moslashishga harakat qilish va ijtimoiy birdamlikka erishishdir.

Yapon milliy xulq-atvorining shakllanishida sintoizm, buddizm, konfutsiylik va "Busido" samuraylar qonuni ta'siri katta bo'lgan. Sintoizm tabiatga hurmat va poklik g'oyalarini o'rgatsa, buddizm sabr-toqat, hayotning vaqtinchaligini anglash va ichki osoyishtalikni, konfutsiylik esa ijtimoiy tartib, intizom, hurmat va odobni axloqiy tizimga, "Busido" samuraylarni sadoqat, halollik, qat'iyat va fidoyilikka o'rgatgan[5].

Yapon xalqida o'ziga hos "furyu" iborasi bo'lib, ijtimoiy jihatdan uni "go'zallikni his qilish va hayotdan zavqlanish madaniyati" sifatida talqin qilinadi. "Furyu" jamiyatda estetik hislar va go'zallikni qadrlash timsoli. U nafaqat san'atda, balki kundalik hayotda ham-bog' yaratishda, kiyinish uslubida, so'zlashish ohangida aks etadi. Bu ibora ijtimoiy jihatdan jamiyat a'zolarining estetik hislarini shakllantirib, ijtimoiy o'zaro ta'sirini go'zalikka yo'naltiradi. Yapon yozuvchi Tetsydo Tanikovaning fikriga muvofiq, "Yapon milliy xulq-atvorning asosi estetik hissiyot aynan furyuga muvafiq jamlanadi"[1]. Tanikovaning fikriga muvofiq, "Agar yapon nochor ahvolda bo'lsa ham, uyda albatta tokchada rasm va tuvaqlarda saqlaydigan gullar va yapon millati bir parcha yerga ham daraxt ekadi, undan bo'g' yaratadi. Bunday bo'glar sinjkovlik bilan parvarish qilingan"[1]. Hozirgi vaqtda sayohlar bunday bo'glarni katta shaharlarga aylantirgan. "Furyu" odamlar o'rtasidagi muloqotda nafislik va odobni targ'ib etadi. Bu ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi nozik muloqot madaniyati bo'lib, ziddiyatlarni keskinliksiz hal qilishga yordam beradi. Yapon ijtimoiy tuzilmasida uyg'unlik qadriyatida uyg'un keladi. Chetdan kelgan sayyohlar Yaponiya bilan bo'g'liq barcha tasavvurlarini ayollarini gullarini badiiy bezash, she'r yozish va choy marosimi san'atini o'tkazish, har xil estetik ko'rinishlar "furyu" bilan bog'lashadi.

Hayotning eng yashirin shakllarini anglash yaponlarga xos xususiyatdir. Yaponlarning hayot falsafasi ko'p darajada estetik meyo'r bilan belgilanadi va badiiy did butun hayot tarzini qamrab oladi. Asrlar davomida Yaponiyada go'zallik hissi taraqqiylashib ketdi, o'ziga xos go'zallikka sig'inish, diniy marosimga aylangan va barcha tabaqalarga tarqalgan. Go'zallikka intilish esa, yaponlarda avlodan-avlodga o'tib kelayotgan an'ana hisoblanadi. Bu barcha narsalarda, hissiyot, so'z, harakat, xulq-atvorlarda namoyon bo'ladi. Chetdan kelganlar "Yapon xalqiga xos go'zallik hissiyotini yapon xalqi o'z milliy ustuvorligi"-deb hisoblashadi[4]. Go'zallikka yuqori ta'sirchanligi yapon xalqini o'ta hayajonli qilib qo'ygan. Qo'yilgan maqsadga obyektiv idrok yo'li bilan erishilsa-da, yaponlar bunga shaxsiy kechinmalari nuqtai nazaridan qaramadi. Go'zallikka bo'lgan muhabbat barcha xalqlarga xos, ammo yapon xalqida u eng muhim xususiyatlardan bo'lib milliy an'anada qabul qilinadi. An'analar, aniqrog'i an'analik yapon millatining xulqi, o'yi-fikri, orzulariga singib, yapon xarakterini muhim xususiyatlariga aylangan. Yapon millatida vujudga kelgan an'anaviylik milliy, madaniy va ijtimoiy elementlarini mustahkamlab, ijtimoiy hayotdagi izchillikni yorqin namoyon etadi. Yaponlar madaniy merosga chuqur hurmat bilan qaraydilar, uni asrab-avaylaydilar.

Zamonaviy Yaponiyada an'analar, uzoq o'tmish, qadimiy yodgorliklarga katta e'tibor bilan qarashadi. Yaponlar o'tgan avlodlardan meros qolgan xulq-odobi meyor, madaniyat shaklini o'zgartirmay saqlashga qattiq intiladi. Ularga oldin shakllangan hayot tarziga e'tibor berish xosdir. Shuning uchun xulq-odob shakllari doimiy mustahkam bo'lib qoladi. Masalan, Yaponiyada hanuzgacha rikshalik kasbi amal qilib keladi. Rikshalik kasbi Yaponiyada yuz yillardan beri saqlanib kelayotgan kasb bo'lib, qadim zamonlarda bu asosiy transport vositasi hisoblangan. Hozirda rikshalik kasbi faqat turistik joylarda bo'lib, ularni sportchilar, aktyorlar, talabalar va gid-tarjimonlar ishlashadi. Bunday qilishdan maqsad, rikshalar

nafaqat arava tortish emas, balki insonlarga hamrohlik qilib, Yaponiya madaniyatining bir bo'lagi sifatida sayohatchilarga Yapon madaniyati, san'ati, an'analari hamda ijtimoiy hayoti haqida ma'lumotlar berib sayohatchilarni qiziqtirib kelishadi. Bu esa, Yapon millatining qalbidir.

Bu xulq-atvor meyorlari Yapon xalqining ish faoliyatidan tortib kundalik hayotidagi eng oddiy odatlarga ham o'z aksini topgan. Masalan, Yapon xalqining xulq-atvor meyorlaridan biri, "giri" umummilliy munosabatlari bo'lib, "giri" bu ham majburiyat, ham majburiyatini bajarish, axloqiy burch va minnatdorchilik burchi hisoblanadi. Bu shaxsning boshqalarga nisbatan o'zini majbur his qilish, ainiqsa yordam, yaxshilik yoki mehr ko'rsatgan odamga nisbatan hurmat va minnatdorchilik bilan qarashdir. Yapon milliy an'analarida "giri" ijtimoiy tartib va odob talab qilgan holatda bajariladigan burchdir[1].

Minnatdorchilik burch Yaponiyada yiliga ikki marta o'tkaziladi: yil boshida (o-tyugen) va yil tugashida (o-seybo)[1]. Ushbu vaqt ma'muriyat har bir odam boshqa odam oldida burchli ekanini yaxshi biladi, u hoh biror ishdan vositachi, xaridor yoki o'qituvchi bo'lsin. Bunday vaqtda xizmatchilar uchun mukofot beriladi. "Giri" munosabatlarini biz, ustoz-shogird munosabatlarida: Shogird ustoziga "giri" asosida hurmat qiladi va minnatdorchilik bildiradi. Bunday hurmat umr bo'yi davom etadi va bu javobgarlik hisoblanadi. "Giri" munosabatlarini yana bir ko'rinishi, oila va qarindoshlar o'rtasida: Bola ota-onasiga minnatdorchilik bilan burchli sanaladi. To'y yoki dafn marosimlarida qarindoshlar yordam ko'rsatish "giri" ifodasidir. Shuningdek, kompaniya va ishchilar o'tasida: Ishchi kompaniyaga sodiqlik bilan xizmat qiladi, bu "giri". Kompaniya ham ishchiga g'amxo'rlik qiladi, bu ham o'z navbatida "giri" hisoblandi.

Yapon xalqining ongida "giri" munosabatlari "nindzyo" (yani insonni sevis) bilan bog'lanadi[1]. Ushbu ikki munosabat jamiyatda vujudga keladi va ular orasida juda nozik farqlar bor. Masalan, agar hodim o'zi yoqtirmagan boshlig'iga sovg'a qilsa- bu "giri" ammo, buni bilgan boshliq chin dildan sovg'aga quvonsa, bu "nindzyo". Shuni aytish mumkinki, "giri" -ijtimoiy munosabatlar belgisi, "nindzyo" - ushbu tizimdagi odamlar his etadigan asl tuyg'u.

Yapon tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, "giri" bu gardish, "nindzyo" esa shu gardishdagi qimmatbaho toshdir[10]. "Giri" va "nindzyo" yapon madaniyatining odamlar xulqini tartibga soluvchi murakkab va o'ziga xos ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi. Ular bir-birini mustasno qilmay, taqozga etadi. Binobarin, ular birgalikda ham, alohida ham namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, yangi kelin qaynonasi bilan munosabatlarda uyatchanlikni namoyon qiladi. "Giri" munosabatlariga amal qilib, u qaynonasini qattiq hurmat qiladi, barcha ishni u uchun juda yaxshi, hatto muhabbat bilan qilishga harakat qiladi. Shunday bo'lsada "giri" uni qaynonasidan masofada ushlab turadi, chunki qaynona ijtimoiy ustunlik egasi hisoblanadi. Agar qaynona kelinga yon bossa munosabatlar iliqlashadi va yaponlar buni "giri"ga "nindzyo" kirib bormoqda deb ifodalaydi. Yana bir Yapon xalqining iborasi bor "Nindzyo"ni sevganim uchun "giri"ga rioya qilaman, "giri"ga rioya qilib o'zimdagi "nindzyo" tuyg'usini sezaman". Yapon xulq-atvorida bu ikki kuchning muvozanatini saqlash muhim: inson his- tuyg'ularini ijtimoiy meyorlardan ustun qo'ymaydi, lekin imkon bo'lsa, shaxsiy ehtiyojlarini hisobga oladi.

Yapon jamiyatining huquqiy tizimini ijtimoiy normalarini o'rganishga qaratilgan Tokyo universiteti professori Fransiya va Yaponiya huquqi bo'yicha mutaxassis Yosiyuki Noda "giri" munosabatlariga shunday ta'rif keltiradi[1]:

“Giri” munosabatlar bir odamning boshqa odamga nisbatan majburiyati. Ushbu majburiyatning bajarilishi mazmini va sur’ati ijtimoiy mavqega bog’liq. Masalan, farzandning ota-onaga, o’quvchining o’qituvchiga, hodimning boshliqqa munosabati.

Inson boshqalardan “giri” munosabatlar majburiyatini baljarilishini talab qila olmaydi. U o’zi ko’ngilli ravishda “giri” munosabatlarini amalga oshiradi. “Giri” munosabatlarini amalga oshirmagan odam Yaponiyada nafratga loyiq hisoblanadi. Ammo, “giri” munosabatlarini bajarishga majburlash ham mumkin emas, majburlagan inson “giri” qoidalarini buzgan hisoblanadi.

“Giri” munosabatlar o’zgaras.

“Giri” munosabatlari odamlar orasida turli ijtimoiy miqiyosda vujudga keladi. “Giri” munosabatlari Yaponlarning ongiga chuqur joylashgan, u Yaponlarning his-tuyg’ulai va intellekti bilan uyg’unlashib ketgan.

“Giri” munosabatlari o’z davrining hodisasi bo’lgani sababi u avvalambor jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi asosida qurilgan

“Giri” munosabatlaridan chekinganlar o’z qiyofasini yo’qotadi[1].

Zamonaviy Yaponiyada globalizatsiya, texnologiyalar rivoji, shahar hayoti yapon xalqining hayot tarziga o’zgarishlar kiritgan bo’lsada, ammo an’anaviy xulq-atvor meyorlari hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Yapon xalqining xulq-atvorining asosiy xususiyati bu ularning tartib-intizomligidir. Yapon xalqining tartib-intizomligi asrlar davomida ijtimoiy tuzum, tarbiya, diniy-falsafiy qarashlar va mehnat madaniyati orqali shakllangan. Yapon milliy xulq-atvor xarakterining tartibligi ta’lim-tarbiyada ham o’z qirralarini namoyon etadi. Yaponiyada ta’lim tizimi bolani intizomli, ma’uliyatli, jamoaga moslasha oladigan, halol va mehnatkash inson sifatida tarbiyalashni maqsad qiladi. Bu tizim shaxsiy muvaffaqiyatdan ko’ra, jamiyatning farovonligini ustun qo’yadi. Yaponiyada yosh avlod tarbiyasi xarakter shakllanishi bolalar bog’chasidan boshlanib, ular o’zaro yordam, gigiena, tozalik, tartib-intizom va hurmat qilish tamoyillariga amal qilishga o’rgatadi. Yapon xalqi “Bolalar kichik yoshdan tartib-intizomga o’rgatilsa, maktabda ham uyda ham qoidalarini buzmaslik, boshqalarni hurmat qilish, jamiyatda etuk shaxs sifatida xizmat qiladi”[5]-deb hisoblashadi. Shuningdek, Yapon xalqi bolalarga kichik yoshdan boshlab “Nima ish qilsang ham- eng yaxshisini qil”[5] degan tushunchani singdirishadi. Bu esa, bolada har bir ishga chin dildan e’tiborli bajarish odatini shakllantiradi. Yapon xalqi bolalarga maktablarda darsdan tashqari jamoaviy tozalash, guruh bo’lib ovqatlanish, jamoaviy qaror qabul qilish, jamoat joylarida gapirmaslik, navbatni saqlash, o’zidan keyin tozalab qo’yish kabi bir qancha mashg’ulotlar orqali milliy xulq-atvor meyorlarini amal qilishga o’rgatiladi. Yapon xulq-atvorining tartib-intizomligini har bir narsani vaqtida bajarish xakteri orqali ham ko’rish mumkin. Masalan, Yapon xalqida kechikish Yapon jamiyatiga xurmatlilik sifatida qaraladi. Poyezdlar, abtobuslar va jamoat transportlari deyarli daqiqa-daqiqasiga harakatlanishi bu madaniyatning mahsuli hisoblanadi. Ish mehnat intizomiga, ish joylarida qoidalariga qattiq amal qilish,

topshiriqlarni aniq va vaqtida bajarish bu Yapon xalqi uchun odatiy xoldir. Ommaviy tadbirlar va favqulodda vaziyatlarda ham odamlar navbat bilan tinch va tartibli harakat qilishadi.

Xulosa. Yapon milliy xulq-atvori- bu uzoq asrlar davomida shakllangan madaniy qadriyatlar, diniy ta’sirlar va ijtimoiy meyorlar majmuasidir. Unda shaxsiy tarbiya bilan bir qatorda, jamoaviy manfaat, mehnatsevarlik, kamtarlik, o’z his-tuyg’ularini boshqara olish, hurmat va minnatdorlik bildirish kabi munosabatlar muhim o’rin egallaydi. Yapon milliy an’anaviy xakteri bu nafaqat shaxsiy sifatlar majmui, balki xalqning tarixiy tajribasi, diniy qadriyatlari va ijtimoiy hayotining mahsulidir. Kamtarlik, mehnatsevarlik, intizomlilik, o’zaro hurmat, estetik did, jamoaviylik va burchga sodiqlik kabi xususiyatlar yapon xalqining madaniy asosini tashkil etadi. Yapon jamiyatning barqarorligi va muvaffaqiyatlarining asosida aynan ushbu xususiyatlar yotadi. Shuningdek, Yapon xalqining ijtimoiy hayotida har bir ishni chin dildan va mukammal bajarish odati bo’lib, bu milliy mentalitet va ijtimoiy qadriyatlar tizimining ajralmas qismidir. Bu odat ularning ijtimoiy hayot tarzi, jamiyatdagi barqarorlik va uyg’unlikni ta’minlaydi, chunki har bir shaxs o’z vazifasini mukammal bajarsa, butun tizim samarali ishlaydi. Ishni mukammal bajarish boshqalarga hurmat, ishonch va obro’ belgisi sifatida qabul qilinadi. Yapon xalqining bu xulq-atvori ijtimoiy hayotdagi shunchaki odat emas, balki ijtimoiy tizim, tarixiy meros va madaniy qadriyatlar natijasidir.

Bugungi globallashuv davrida ham ular o’z milliy xulq-atvorini asrab-avaylab kelmoqdalar. Ammo Globalizatsiya, texnologik rivoj va madaniy almashinuv yosh avlod xulq-atvorida yangicha qarashlarni kengayishiga olib kelmoqda. Axir, Yaponiya rivojlangan robotlar, texnologiyalari yuqori cho’qqiga chiqqan ular o’z milliy madaniyatini saqlagan ijtimoiy hayoti rivojlangan mamlakat. Yaponiya bu millionlab insonlar yashaydigan ammo shovqini yo’q, aholisi bir butun mamlakatga teng, tartib intizomi dunyo o’mak, tartib bu jazo uchun emas, balki qadriyat uchun xizmat qiladigan, har bir insonga ichki hotirjamlik sukutni beradigan mamlakatdir.

O’zbekiston va Yaponiya xalqlari uzoq tarixga ega bo’lib, ular o’ziga xos madaniyat, urf-odat va milliy xakteri bilan umumiylik va farqlari bor. O’zbek xalqi qadimdan mehmondo’stligi, saxovat, o’zaro yordamga tayyorligi, katta-kichikka hurmat, odob-axloq qoidalariga amal qilish, mehroqibati va boshqa bir qancha xulq-atvorlari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. O’zbek va Yapon xalqlarining xulq-atvorining umumiy jihatdan-insoniylik, hurmat va jamoaviylik qadriyatlariga sodiqligi milliy urf-odatlatni asrash hisoblansa, O’zbek va Yapon xalqining xulq-atvor meyorlarini farqliligi jihatidan- O’zbek xalqi ochiqko’ngilligi va his-tuyg’ularini bevosita ifodalashi bilan ajraladi, yaponlar esa hissiyotlarini ichida saqlashga moyil. Yapon xalqida qat’iy intizom kuchli bo’lsa, O’zbek xalqida moslashuvchanlik kuchli, O’zbek xalqida mehmondo’stlikni, insoniylik va muloqot ustuvor, Yapon xalqida esa odob-intizom, samaradorlik ustuvor hisoblanadi. O’zbek va Yapon xalqlarining xulq-atvori turli madaniy asoslarda shakllangan bo’lsa-da, har ikkisi ham jamiyatdagi totuvlik, hurmat va hamkorlikni qadrlaydi. Bu jihatlari esa o’zaro tushunishni mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Пронников В.А., Ладонов И. Д. Японцы. Москва, «Наука», 1983.- С. 270
2. Мурасаки Сикибу Повесть о Гэндзи (Гэндзи-моногатари). М.:Наука 1992 - С. 192.
3. [https:// uz.emb-japan.go.jp](https://uz.emb-japan.go.jp)
4. ujc.uz
5. НИППОНИЯ. Журнал. Heibonsha Ltd/Япония, 2002
6. <https://visitjapan.ru>
7. Самохвалова В. И. Традиционные японские искусства. Москва1998.- С.350
8. Ахмедова М. А. Японская философия. Ташкент 2004, - С. 60
9. Нагата Хироси История философской мысли Японии М,1991,- С.131.
10. Узбекистан и Япония на возрождающемся Шелковом Пути. Сборник докладов научном конференции. Ташкент, Международный караван-сарай культуры Икуо Хираямы. Ташкент 2007. – С.164